

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEK OILALARIDAGI EMOTSIONAL ALIENATSIYANING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK INDIKATORLARI

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi

International School of Finance, Technology and Science instituti, mustaqil izlanuvchi (PhD).

e-mail: dildorichkayangiboyeva98@gmail.com **ORCID:** <https://orcid.org/0009-0006-1413-6031>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning ijtimoiy-psixologik indikatorlari nazariy va empirik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda emotsional alienatsiya oilaviy munosabatlarning emotsional sifati, psixologik qo'llab-quvvatlash, er-xotin kommunikatsiyasi, ota-ona-farzand emotsional aloqasi, oilaviy motivatsiya, birgalikda vaqt o'tkazish, oilaviy hamkorlik hamda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning oilaviy munosabatlarga ta'siri bilan bog'liq kompleks psixosotsial fenomen sifatida talqin etiladi. 1200 nafar respondent ishtirokida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalari emotsional yaqinlik va oilaviy qo'llab-quvvatlashning emotsional alienatsiyani kamaytiruvchi muhim himoya omillari ekanligini, raqamli texnologiyalardan nomutanosisib foydalanish esa salbiy emotsional kechinmalar va subyektiv yolg'izlikni kuchaytirishini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: emotsional alienatsiya, o'zbek oilalari, oilaviy kommunikatsiya, emotsional yaqinlik, oilaviy qo'llab-quvvatlash, ota-ona-farzand munosabatlari, er-xotin munosabatlari, raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt, psixosotsial indikatorlar.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ИНДИКАТОРЫ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ АЛИЕНАЦИИ В УЗБЕКСКИХ СЕМЬЯХ

Янгибоева Дилдорахон Рахмон кизи

Институт International School of Finance, Technology and Science, независимый исследователь (PhD).

Аннотация.

В статье представлены результаты теоретического и эмпирического исследования социально-психологических индикаторов эмоциональной алиенации в узбекских семьях. Эмоциональная алиенация рассматривается как комплексный психосоциальный феномен, связанный с эмоциональной близостью, семейной поддержкой, супружеской коммуникацией, эмоциональными отношениями между родителями и детьми, семейной мотивацией, совместным проведением времени, семейным сотрудничеством, а также влиянием цифровых технологий и искусственного интеллекта на семейные отношения. По результатам эмпирического исследования, проведенного с участием 1200 респондентов, установлено, что эмоциональная близость и семейная поддержка являются важнейшими защитными факторами, снижающими уровень эмоциональной алиенации, тогда как чрезмерное использование цифровых технологий способствует усилению негативных эмоциональных переживаний и субъективного чувства одиночества.

Ключевые слова: эмоциональная алиенация, узбекские семьи, семейная коммуникация, эмоциональная близость, семейная поддержка, отношения родителей и детей, супружеские отношения, цифровые технологии, искусственный интеллект, психосоциальные индикаторы.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL INDICATORS OF EMOTIONAL ALIENATION IN UZBEK FAMILIES

Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi

International School of Finance, Technology and Science Institute, Independent Researcher (PhD).

Abstract.

This article presents a theoretical and empirical analysis of the socio-psychological

indicators of emotional alienation in Uzbek families. Emotional alienation is conceptualized as a multidimensional psychosocial phenomenon associated with emotional closeness, family support, marital communication, parent-child emotional relationships, family motivation, shared family activities, family cooperation, and the influence of digital technologies and artificial intelligence on family interactions. An empirical study involving 1,200 respondents demonstrated that emotional closeness and family support function as significant protective factors reducing emotional alienation, whereas excessive use of digital technologies contributes to increased negative emotional experiences and subjective loneliness.

Keywords: emotional alienation, Uzbek families, family communication, emotional closeness, family support, parent-child relationships, marital relationships, digital technologies, artificial intelligence, socio-psychological indicators.

Kirish. Jahondagi zamonaviy ijtimoiy-psixologik tadqiqotlarda oila shaxsning emotsional rivojlanishi, psixologik xavfsizligi, ijtimoiy identifikatsiyasi, qadriyatlar tizimining shakllanishi va shaxslararo munosabatlar kompetensiyasining rivojlanishini ta'minlovchi asosiy mikromuhit sifatida e'tirof etiladi. Biroq globallashuv, urbanizatsiya, raqamli transformatsiya, iqtisodiy faoliyatning jadallashuvi, mehnat bandligining ortishi, oilaviy rollarning o'zgarishi hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining kundalik hayotga jadal kirib kelishi oilaviy munosabatlarning mazmuni va psixologik tuzilmasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada oilalarda tashqi funksional yaxlitlik saqlanib qolayotgan bo'lsa-da, oila a'zolari o'rtasidagi emotsional yaqinlikning pasayishi, o'zaro ishonchning susayishi, hissiy qo'llab-quvvatlashning kamayishi va emotsional alienatsiya holatlarining kuchayishi kuzatilmoqda [1].

Zamonaviy oila psixologiyasida emotsional alienatsiya shaxsning oilaviy tizim ichida o'zini tushunilgan, qabul qilingan, qadrlangan va psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlangan deb his qilmasligi natijasida yuzaga keladigan murakkab ijtimoiy-psixologik holat sifatida talqin etiladi. Mazkur fenomen oilaviy munosabatlarning tashqi barqarorligi bilan emas, balki ularning emotsional sifati, o'zaro ishonch darajasi, kommunikativ ochiqligi va hissiy integratsiyasi bilan belgilanadi. Shu bois emotsional alienatsiya zamonaviy oilaviy farovonlikni baholovchi muhim psixologik indikatorlardan biri sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda xalqaro tadqiqotlar oiladagi emotsional yaqinlik va psixologik qo'llab-quvvatlashning pasayishi ruhiy salomatlikka salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlamoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, depressiv va xavotirli buzilishlar dunyo bo'yicha eng keng tarqalgan ruhiy muammolar qatoriga kiradi va ularning rivojlanishida oilaviy munosabatlar sifati muhim determinantlardan biri hisoblanadi. Shuningdek, AQSh bosh jarrohi (U. S. Surgeon General) tomonidan e'lon qilingan hisobotda ijtimoiy aloqalarning zaiflashuvi, yolg'izlik va emotsional izolyatsiya jismoniy hamda ruhiy salomatlik uchun jiddiy xavf omili sifatida baholanib, oiladagi emotsional bog'liqlikni mustahkamlash zamonaviy jamiyatning ustuvor vazifalaridan biri ekanligi ta'kidlangan [2].

Emotsional alienatsiya oilaviy munosabatlarning barcha tarkibiy qismlariga ta'sir ko'rsatadi. U er-xotin o'rtasidagi hissiy yaqinlikning susayishi, ota-ona va farzand o'rtasidagi emotsional bog'lanishning zaiflashuvi, oilaviy kommunikatsiyaning yuzakilashuvi, psixologik qo'llab-quvvatlashning kamayishi hamda oila a'zolarining bir-biridan psixologik uzoqlashuvi orqali namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, emotsional alienatsiya oilaviy nizolar, subyektiv yolg'izlik, depressiv kechinmalar, oilaviy qoniqishning pasayishi va oilaning psixologik rezilientligining susayishi bilan ham bevosita bog'liqdir. Emotsional alienatsiyani bir tomonlama salbiy hodisa sifatida baholash ilmiy jihatdan yetarli emas. Evolyutsion va ijtimoiy-psixologik yondashuvlarga ko'ra, mazkur holat dastlab shaxsni buzilgan emotsional aloqalarni tiklashga undovchi adaptiv signal vazifasini bajaradi. Biroq emotsional yaqinlikning uzoq muddat davomida tiklanmasligi, oilada ochiq muloqotning yo'qligi, hissiy ehtiyojlarning muntazam qondirilmaligi va psixologik qo'llab-quvvatlashning sustligi emotsional alienatsiyaning surunkali shakllanishiga olib keladi. Bunday holatda u oilaviy tizimning funksional barqarorligini izdan chiqaruvchi, shaxsning psixologik farovonligi va oilaviy munosabatlar sifatini pasaytiruvchi omilga aylanadi.

Shu sababli O'zbek oilalarida emotsional alienatsiyani o'rganishda uni faqat umumiy psixologik holat sifatida emas, balki emotsional yaqinlik, oilaviy qo'llab-quvvatlash, oilaviy motivatsiya, er-xotin kommunikatsiyasi, ota-ona-farzand emotsional aloqasi, oilaviy qarorlar va hamkorlik, birgalikda vaqt o'tkazish, oilaviy hamkorlik hamda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning oilaviy munosabatlarga ta'siri kabi o'zaro bog'liq ijtimoiy-psixologik indikatorlar tizimi orqali kompleks baholash zarur.

Metodlar. Mazkur tadqiqotda O'zbek oilalaridagi emotsional alienatsiyaning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini aniqlash va empirik jihatdan asoslash maqsadida nazariy-metodologik, tizimli, qiyosiy-tahliliy, psixodiagnostik hamda statistik tahlil yondashuvlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini oilaviy tizimlar nazariyasi, bog'lanish nazariyasi, oilaviy rezilientlik konsepsiyasi, kognitiv nomuvofiqlik nazariyasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash konsepsiyasi hamda shaxslararo munosabatlar psixologiyasiga oid zamonaviy ilmiy qarashlar tashkil etdi. Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar emotsional alienatsiyani oilaviy kommunikatsiya sifati, er-xotin munosabatlari, ota-ona-farzand emotsional bog'lanishi, oilaviy qo'llab-quvvatlash, oilaviy hamkorlik, psixologik xavfsizlik hamda subyektiv yolg'izlik bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab psixosotsial fenomen sifatida o'rganadilar. So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda emotsional alienatsiya nafaqat shaxsning individual psixologik holati, balki oilaviy tizimning funksional

holatini tavsiflovchi muhim indikator sifatida talqin qilinmoqda.

R. Weiss emotsional alienatsiyaning asosini yaqin affektiv munosabatlarning yetishmasligi tashkil etishini ta'kidlaydi. Uning konsepsiyasiga ko'ra, shaxs ko'plab ijtimoiy aloqalarga ega bo'lishiga qaramay, agar u o'zini yaqin insonlari tomonidan tushunilgan, qabul qilingan va qo'llab-quvvatlangan deb his qilmasa, emotsional begonalashuv shakllanadi. Mazkur yondashuv oilaviy munosabatlarning sifati emotsional farovonlikni belgilovchi asosiy omillardan biri ekanligini ko'rsatadi [3]. L. Peplau va D. Perlman tomonidan ishlab chiqilgan kognitiv modelda emotsional alienatsiya shaxs kutayotgan oilaviy munosabatlar sifati bilan real mavjud munosabatlar o'rtasidagi tafovut natijasida yuzaga keladigan psixologik holat sifatida izohlanadi. Ushbu nazariyaga ko'ra, oiladagi muloqotning soni emas, balki uning mazmuni, hissiy chuqurligi va shaxs ehtiyojlarini qondirish darajasi emotsional alienatsiyaning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [4].

J. Bowlbyning bog'lanish nazariyasida esa ota-ona va farzand o'rtasida bolalik davrida shakllangan emotsional bog'lanish modeli keyingi oilaviy munosabatlarning psixologik sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Xavfsiz bog'lanish modeli shakllangan oilalarda emotsional yaqinlik, ishonch va psixologik qo'llab-quvvatlash yuqori bo'lsa, xavotirli yoki qochuvchi bog'lanish uslublari emotsional alienatsiyaning rivojlanish xavfini oshiradi [5]. M. Bowenning oilaviy tizimlar nazariyasiga ko'ra, oila yagona emotsional tizim hisoblanadi va tizimning har bir elementidagi o'zgarish boshqa a'zolarining psixologik holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy differentsiatsiyaning pasayishi, kommunikativ uzilishlar, hissiy uzoqlashuv va o'zaro ishonchning kamayishi emotsional alienatsiyaning shakllanishiga olib keluvchi asosiy tizimli mexanizmlar sifatida baholanadi [6].

F. Walsh tomonidan ishlab chiqilgan oilaviy rezilientlik konsepsiyasi oiladagi emotsional qo'llab-quvvatlash, moslashuvchanlik, umumiy qadriyatlar, ochiq kommunikatsiya va oilaviy hamkorlikni emotsional alienatsiyaning oldini oluvchi asosiy himoya omillari sifatida talqin qiladi. Mazkur yondashuv oilaning qiyinchiliklarga birgalikda moslashish qobiliyati oilaviy psixologik barqarorlikning muhim mezonini ekanligini ko'rsatadi [7]. So'nggi yillardagi xalqaro tadqiqotlarda emotsional alienatsiyaning zamonaviy determinantlari sifatida raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar va sun'iy intellekt vositalarining oilaviy munosabatlarga ta'siri ham alohida o'rganilmoqda. Tadqiqotlar raqamli texnologiyalar oilaviy muloqotni qo'llab-quvvatlash imkoniyatiga ega bo'lsa-da, ulardan me'yorida ortiq foydalanish yuzma-yuz emotsional muloqotning qisqarishi, empatik tinglashning sustlashishi va psixologik masofaning ortishiga olib kelishini ko'rsatmoqda. Shu sababli O'zbek oilalaridagi emotsional alienatsiyani ilmiy jihatdan tahlil qilishda faqat uning umumiy darajasini baholash yetarli emas. Uni belgilovchi emotsional yaqinlik, oilaviy qo'llab-quvvatlash, oilaviy motivatsiya, er-xotin kommunikatsiyasi, ota-ona-farzand emotsional aloqasi, oilaviy qarorlar va hamkorlik, birgalikda vaqt o'tkazish, oilaviy hamkorlik hamda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning oilaviy munosabatlarga ta'siri kabi indikatorlarni kompleks tarzda o'rganish zarur.

Natijalar. O'zbekiston hududida istiqomat qiluvchi 1200 nafardan iborat oilalarda yolg'izlik namoyon bo'lishi tadqiq etilgan bo'lib, qayd etilgan **empirik** natijalar o'zbek oilalaridagi emotsional alienatsiyaning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini shakllantirishga imkon beradi.

1-jadval. O'zbek oilalarida emotsional alienatsiyani o'rganish hamda yolg'izlik diagnostikasi o'zaro aloqadorligi (n=1200)


Ko'rsatkichlar	Salbiy emotsional kechinmalar	Ijtimoiy aloqalarning buzilishi	Atrofdagilar tomonidan tushunmaslik
Emotsional yaqinlik	-0,261**	-0,035	0,145**
Oilaviy qo'llab-quvvatlash	-0,233**	-0,176**	-0,050
Oilaviy motivatsiya	-0,262**	-0,026	-0,082*
Oilaviy qarorlar va hamkorlik	-0,245**	-0,058	0,107**
Er-xotin kommunikatsiyasi	-0,246**	-0,026	0,125**
Ota-ona-farzand emotsional aloqasi	-0,016	0,011	0,110**
Raqamli texnologiyalar va SI ta'siri	0,266**	0,059	0,118**
Birgalikda vaqt o'tkazish	0,240*	0,048	0,134**
Oilaviy hamkorlik (konativ)	-0,206**	0,114**	0,115**
Emotsional alienatsiya	0,230**	0,239**	0,121**

Izoh: * - $p < 0,05$; ** - $p < 0,01$.

O'zbek oilalarida emotsional alienatsiya indikatorlari hamda yolg'izlik diagnostikasi komponentlari o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqliklar tahlili shuni ko'rsatdiki, emotsional yaqinlik bilan salbiy emotsional kechinmalar o'rtasida statistik jihatdan ishonchli manfiy bog'liqlik aniqlandi ($r = -0,261$; $p < 0,01$). Mazkur natija oilada emotsional yaqinlik darajasi ortgan sari respondentlarda ichki emotsional zo'riqish, ruhiy bo'shliq, xavotir va yolg'izlik bilan bog'liq salbiy kechinmalar kamayishini ko'rsatadi. Shu bilan birga, emotsional yaqinlik bilan atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi o'rtasida kuchsiz, ammo ishonchli musbat bog'liqlik qayd etildi ($r = 0,145$; $p < 0,01$). Ushbu natija emotsional yaqinlikka bo'lgan ehtiyoj yuqori bo'lgan shaxslarning o'zaro tushunishga nisbatan talabchanligi ham ortishi bilan izohlanishi mumkin. Oilaviy qo'llab-quvvatlash bilan salbiy emotsional kechinmalar ($r = -0,233$; $p < 0,01$) hamda ijtimoiy aloqalarning buzilishi ($r = -0,176$; $p < 0,01$) o'rtasida ishonchli manfiy bog'liqlik aniqlandi. Bu natija oiladagi psixologik yordam, mehr va qo'llab-quvvatlash kuchaygani sari yolg'izlikning emotsional va ijtimoiy komponentlari sezilarli darajada kamayishini ko'rsatadi.

Oilaviy motivatsiya bilan salbiy emotsional kechinmalar o'rtasida manfiy bog'liqlik kuzatildi ($r = -0,262$; $p < 0,01$). Demak, oila a'zolarining umumiy maqsadlari va oilaviy qadriyatlari kuchli bo'lgan oilalarda salbiy emotsional holatlar kamroq uchraydi. Shuningdek, oilaviy motivatsiya bilan atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi o'rtasida ham kuchsiz manfiy bog'liqlik aniqlandi ($r = -0,082$; $p < 0,05$), bu oilaviy motivatsiya ortishi bilan o'zini tushunilmagan deb his qilish darajasi pasayishini anglatadi. Oilaviy qarorlar va hamkorlik bilan salbiy emotsional kechinmalar o'rtasida manfiy bog'liqlik mavjudligi aniqlandi ($r = -0,245$; $p < 0,01$). Bu natija oilaviy qarorlarni birgalikda qabul qilish va o'zaro hamkorlik respondentlarning psixologik farovonligini oshirishini ko'rsatadi. Mazkur indikator bilan atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi o'rtasida esa kuchsiz musbat bog'liqlik kuzatildi ($r = 0,107$; $p < 0,01$).

Er-xotin kommunikatsiyasi bilan salbiy emotsional kechinmalar o'rtasida ishonchli manfiy bog'liqlik qayd etildi ($r = -0,246$; $p < 0,01$). Bu shuni anglatadiki, turmush o'rtoqlar o'rtasidagi konstruktiv muloqot kuchaygani sari salbiy emotsional holatlar kamayadi. Shu bilan birga, er-xotin kommunikatsiyasi bilan atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi o'rtasida kuchsiz musbat bog'liqlik kuzatildi ($r = 0,125$; $p < 0,01$). Ota-ona-farzand emotsional aloqasi bilan atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi o'rtasida statistik jihatdan ishonchli musbat bog'liqlik aniqlandi ($r = 0,110$; $p < 0,01$). Bu natija ota-ona va farzand o'rtasidagi emotsional munosabatlarda o'zaro kutishlarning yuqoriligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.




1-rasm. O'zbek oilalarida yolg'izlik namoyon bo'lishining darajaviy ifodalanishi

Salbiy emotsional kechinmalar bo'yicha respondentlarning 33,00 %ida past, 28,30 %ida o'rta va 38,70 %ida yuqori daraja qayd etildi. Yuqori ko'rsatkichning ustunligi oilada emotsional yaqinlik, psixologik qo'llab-quvvatlash va hissiy qoniqishning yetishmasligi respondentlarning sezilarli qismida ichki bo'shliq, xavotir, ruhiy tushkunlik hamda yolg'izlik hissini kuchaytirayotganini ko'rsatadi. O'rta va yuqori darajalar jami 67,00 %ni tashkil etgani salbiy emotsional kechinmalar respondentlarning aksariyatida turli intensivlikda namoyon bo'layotganini tasdiqlaydi. Past daraja esa respondentlarning uchdan bir qismida oilaviy emotsional qo'llab-quvvatlash va o'zaro ishonchning nisbatan barqarorligini anglatadi.

Ijtimoiy aloqalarning buzilishi komponentida respondentlarning 44,70 %ida past, 23,11 %ida o'rta va 32,11 %ida yuqori daraja aniqlangan. Past darajaning ustunligi o'zbek oilalariga xos qarindoshlik, mahalla va avlodlararo aloqalar ijtimoiy integratsiyani saqlab turuvchi muhim resurs ekanligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, respondentlarning deyarli uchdan bir qismida yuqori darajaning qayd etilishi oilaviy kommunikatsiyaning zaiflashuvi, migratsiya, kasbiy bandlik

yoki ijtimoiy tarmoqlarga ortiqcha berilish natijasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi sustlashayotganini anglatadi. O'rta darajadagi ko'rsatkich esa ijtimoiy aloqalar mavjud bo'lsa-da, ularning psixologik qoniqtiruvchanligi yetarli emasligini bildiradi.

Atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik komponentida respondentlarning 14,40 %ida past, 42,74 %ida o'rta va 42,86 %ida yuqori daraja kuzatildi. O'rta va yuqori darajalar jami 85,60 %ni tashkil etishi respondentlarning aksariyati o'z fikr va hissiyotlari yaqinlari tomonidan yetarli darajada anglanmayotganini his qilishlarini ko'rsatadi. Mazkur natija oilaviy kommunikatsiyada empatik tinglash, hissiy javob va psixologik qabul qilish mexanizmlarining yetarlicha rivojlanmaganidan dalolat beradi. Past darajaning atigi 14,40 %ni tashkil etishi esa respondentlarning nisbatan kichik qismigina o'zini oilada to'liq tushunilgan va qo'llab-quvvatlangan deb his qilishini ko'rsatadi.



2-rasm. O'zbek oilalarida emotsional alienatsiyani muammo sifatida baholanishi

Olingan natijalarga ko'ra, respondentlarning 43 %i emotsional alienatsiyani bir vaqtning o'zida ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo sifatida baholagan. Ushbu ko'rsatkich eng yuqori ulushni tashkil etib, respondentlarning aksariyati emotsional alienatsiyani faqat shaxsning ichki kechinmalari bilan bog'liq hodisa emas, balki oilaviy munosabatlar sifati, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi va jamiyatdagi kommunikativ jarayonlar bilan uzviy bog'liq kompleks psixososial fenomen sifatida idrok etayotganini ko'rsatadi. Mazkur natija emotsional alienatsiyaning shakllanishida shaxsiy omillar bilan bir qatorda, oilaviy va ijtimoiy muhit ham muhim determinant ekanligini tasdiqlaydi.

Respondentlarning 38 %i esa emotsional alienatsiyani faqat individual muammo sifatida baholagan. Bu guruh vakillarining fikricha, mazkur holat asosan shaxsning emotsional barqarorligi, psixologik resurslari, o'zini anglash darajasi hamda individual moslashuv xususiyatlari bilan belgilanadi. Bunday yondashuv emotsional alienatsiyani ko'proq shaxsning ichki psixologik holati sifatida talqin qilishga asoslangan bo'lib, oilaviy yoki ijtimoiy omillarning rolini ikkinchi darajali deb hisoblaydi. Respondentlarning 12 %i emotsional alienatsiyani umuman muammo emas deb baholagan. Mazkur natija ayrim respondentlar emotsional begonalashuvni shaxsiy tanlov, vaqtinchalik ruhiy holat yoki zamonaviy hayot tarzining tabiiy elementi sifatida qabul qilishlarini anglatadi. Biroq ushbu ulush nisbatan kichik bo'lgani sababli, aksariyat respondentlar emotsional alienatsiyaning salbiy oqibatlarini anglashlari kuzatiladi.

Eng past ko'rsatkich 7 % bilan faqat ijtimoiy muammo deb hisoblagan respondentlarga to'g'ri keladi. Bu esa emotsional alienatsiyani faqat jamiyatdagi iqtisodiy, madaniy yoki kommunikativ o'zgarishlar mahsuli sifatida baholovchilar ulushi nisbatan kam ekanligini ko'rsatadi. Demak, respondentlar ushbu hodisani faqat tashqi ijtimoiy omillar bilan izohlashdan ko'ra, uni shaxsning ichki kechinmalari va oilaviy munosabatlar bilan birgalikda shakllanuvchi murakkab jarayon sifatida qabul qilmoqdalar. Respondentlarning 81 %i emotsional alienatsiyani bevosita psixologik muammo sifatida e'tirof etgan, shundan 43 %i uning shaxsiy va ijtimoiy tabiatini birgalikda tan olgan.

Muhokama. Olingan empirik natijalar O'zbek oilalarida emotsional alienatsiya shaxsning individual psixologik xususiyatlari bilan emas, balki oilaviy tizimning emotsional sifati, kommunikativ resurslari va o'zaro psixologik qo'llab-quvvatlash darajasi bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida aniqlangan korrelyatsion bog'liqliklar emotsional alienatsiya ko'p komponentli psixosotsial konstrukt bo'lib, uning shakllanishida emotsional yaqinlik, oilaviy qo'llab-quvvatlash, oilaviy motivatsiya, er-xotin kommunikatsiyasi, oilaviy hamkorlik hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish xususiyatlari muhim determinantlar sifatida ishtirok etishini tasdiqladi.

Tahlillar oilaviy motivatsiya va oilaviy hamkorlikning emotsional alienatsiyani kamaytiruvchi muhim psixologik resurslar ekanligini ham ko'rsatdi. Oila a'zolarining umumiy maqsadlarga yo'naltirilganligi, qarorlarni hamkorlikda qabul qilishi va oilaviy **mas'uliyatni** birgalikda bajarishi emotsional yaqinlikni mustahkamlab, oilaning ichki integratsiyasini kuchaytiradi. Bu holat zamonaviy oilaviy psixologiyada oilaviy kohezivlik va oilaviy birdamlikning emotsional barqarorlikni ta'minlovchi asosiy mexanizmlar ekanligi haqidagi ilmiy qarashlarni yana bir bor tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanish bilan salbiy emotsional kechinmalar hamda atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi o'rtasida musbat bog'liqlik aniqlandi. Mazkur natija zamonaviy raqamli muhit oilaviy kommunikatsiyani yengillashtirish bilan bir qatorda, yuzma-yuz muloqotning qisqarishi, emotsional

almashinuvning sustlashishi va psixologik masofaning ortishiga ham sabab bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa raqamli texnologiyalarning oilaviy munosabatlarga ta'sirini baholashda faqat texnologik imkoniyatlarni emas, balki ularning psixologik oqibatlarini ham hisobga olish zarurligini anglatadi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari emotsional alienatsiya subyektiv yolg'izlikning barcha komponentlari salbiy emotsional kechinmalar, ijtimoiy aloqalarning buzilishi va atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Bu esa emotsional alienatsiya faqat hissiy sovuqlashuv emas, balki shaxsning o'zini oilaviy tizim ichida qabul qilingan, qadrlangan va tushunilgan deb his qilishi bilan bog'liq murakkab psixosotsial holat ekanligini tasdiqlaydi. Olingan natijalar O'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning rivojlanishi oilaning tashqi funksional barqarorligidan ko'ra, ichki emotsional integratsiya darajasi bilan belgilanishini ko'rsatadi.

Xulosa. O'zbek oilalarida emotsional alienatsiyaning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini o'rganish asosida quyidagi xulosalarga kelindi.

Birinchidan, emotsional alienatsiya oilaviy munosabatlarning tashqi shakli bilan emas, balki oila a'zolari o'rtasidagi emotsional yaqinlik, psixologik qo'llab-quvvatlash, kommunikativ ochiqlik va o'zaro ishonch darajasi bilan belgilanadigan murakkab psixosotsial fenomen ekanligi aniqlandi.

Ikkinchidan, emotsional yaqinlik, oilaviy qo'llab-quvvatlash, oilaviy motivatsiya, er-xotin kommunikatsiyasi, oilaviy qarorlarni birgalikda qabul qilish hamda oilaviy hamkorlik salbiy emotsional kechinmalarni kamaytiruvchi va emotsional alienatsiyaning rivojlanishini cheklovchi asosiy himoya indikatorlari sifatida namoyon bo'ldi.

Uchinchidan, emotsional alienatsiya salbiy emotsional kechinmalar, ijtimoiy aloqalarning buzilishi va atrofdagilar tomonidan tushunilmaslik hissi bilan statistik jihatdan ishonchli bog'liqlikka ega ekanligi aniqlandi. Bu emotsional alienatsiyaning subyektiv yolg'izlikning emotsional, ijtimoiy va kognitiv komponentlari bilan uzviy aloqadorligini ko'rsatadi.

To'rtinchidan, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt vositalaridan foydalanishning ortishi salbiy emotsional kechinmalar hamda o'zini tushunilmagan deb his qilish darajasining ortishi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi. Bu zamonaviy raqamli muhit oilaviy kommunikatsiyaning psixologik sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi.

Beshinchidan, tadqiqot natijalari asosida emotsional alienatsiyani baholashda emotsional yaqinlik, oilaviy qo'llab-quvvatlash, oilaviy motivatsiya, oilaviy qarorlar va hamkorlik, er-xotin kommunikatsiyasi, ota-ona-farزند emotsional aloqasi, birgalikda vaqt o'tkazish, oilaviy hamkorlik hamda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning oilaviy munosabatlarga ta'siri asosiy ijtimoiy-psixologik indikatorlar ekanligi ilmiy jihatdan asoslandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Calatrava M., Martins M. V., Schweer-Collins M., Duch-Ceballos C., Rodríguez-González M. Differentiation of Self: A Scoping Review of Bowen Family Systems Theory's Core Construct // *Clinical Psychology Review*. – 2022. – Vol. 91. – Art. 102101.
2. Kim-Appel D., Appel J. K. Bowenian Family Systems Theory: Approaches and Applications // *Foundations of Couples, Marriage, and Family Counseling*. – Hoboken: Wiley, 2021.
3. Noone R. J. *Family and Self: Bowen Theory and the Shaping of Adaptive Capacity*. – Lanham: Lexington Books, 2021. – 234 p.
4. Walsh F. Family Resilience: A Dynamic Systemic Framework // *Multisystemic Resilience: Adaptation and Transformation in Contexts of Change*. – New York: Oxford University Press, 2021. – P. 255–270.
5. Bosmans G., Van Vlierberghe L., Bakermans-Kranenburg M. J., Kobak R., Hermans D., van IJzendoorn M. H. A Learning Theory Approach to Attachment Theory: Exploring Clinical Applications // *Clinical Child and Family Psychology Review*. – 2022. – Vol. 25. – No. 3. – P. 591–612.
6. Pietromonaco P. R., Overall N. C. Applying Relationship Science to Evaluate How Close Relationships Influence Mental Health Across the Lifespan // *Annual Review of Psychology*. – 2022. – Vol. 73. – P. 301–326.
7. Overall N. C., McNulty J. K. What Type of Communication During Conflict Is Beneficial for Intimate Relationships? // *Current Opinion in Psychology*. – 2022. – Vol. 43. – P. 209–214.